



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2020,
Maxsus son

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Alisher UMAROV
Nargiza RAXMANQULOVA
Xolboy IBRAGIMOV
Shavkat QURBONOV
Roxatoy SAFAROVA
Islom ZOKIROV
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA

Таҳририят манзили:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru

liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **O.X.Xamidov**
Oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim muassasalari integratsiyaning asosiy tendensiyalari va muammolari
- 9 **O.R.To'xsanov**
Uzluksiz ta'lim tizimida sharq mutafakkirlarining «ilm olmoq» ta'limoti mohiyati
- 13 **G.O.Hasanova**
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarning qo'llanishi
- 17 **M.M.Nigmatova**
Mashg'ulotlardan zamonaviy o'quv vositalaridan foydalanish
- 21 **G.Kamilova, G.Kurbonova**
Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv
- 25 **Z.B.Jalilov, N.H.Azimova, S.Rahmonova**
Ta'lim muassasalarida estetik tarbiyani amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlar
- 29 **S.S.Avezov**
O'qituvchi nutq madaniyati kompetentligi
- 33 **G.U.Umarova**
Bolalarning iqtisodiy bilimdonligini rivoshlantirishda matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg'ulotlarning ahamiyati
- 38 **D.Sh.Mirzayeva**
Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning poydevori
- 42 **D.Sh.Eshova, N.N.Hamroyeva**
Bolalar nutqini o'stirishda o'yinlar va sahnalashtirish faoliyatining ahamiyati
- 46 **M.Y.Ro'ziyeva, Ch.T.Xemrayeva**
Ta'limda xalq ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati va ularni o'rgatishning innovatsion usullari

MA'NAVIY TARBIYA

- 50 **G.Sh.Rahmonova**
Shaxs kamolotida bo'lajak o'qituvchining ma'naviy-axloqiy va pedagogik kompetentsiyalarni shakllantirish
- 55 **M.B.Sharipova**
O'qituvchi-yoshlar tarbiyasida o'lmas an'ana marosimlarning ahamiyati
- 59 **G.B.Эргашева**
Личностное отношение условий учебной и профессиональной деятельности учителя
- 64 **C.Д.Ниязова**
Роль игры в экологическом образовании дошкольников
- 69 **Л.Г.Расулова**
Формирование элементарных математических представлений у дошкольников через дидактические игры
- 74 **Sh.Sh.Nizomova**
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda to'vus tizimini shakllantirish
- 78 **И.Х.Ражабова**
Особенности организации и проведения дидактических игр с детьми старшего дошкольного возраста
- 84 **Н.А.Хамраева**
Методы использования инновационных технологий на уроках русского языка и литературы
- 90 **N.S.Turdiyeva, Z.M.Ashurova**
O'z-o'zini tarbiyalash borasidagi ajdodlarimiz qarashlari

KASBG A YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 94 **Г.Д.Ниязова, Н.Икрамова**
Роль методической службы в развитии профессиональной компетентности педагога ДОО
- 99 **L.T.Ochilova, L.Ch.Rajabova**
Математика mashg'ulotlarida didaktik o'yinlardan foydalanishning ahamiyati
- 103 **F.F.Nurullayev, N.A.Ukramova**
Oilada sog'lom, man'aviy-axloqiy muhit
- 107 **Sh.H.Qulieva, A.A.To'raev, F.Sh.Avezova**
Tizimni yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorgarligini shakllantirish



OILADA SOG'LOM, MAN'AVIY-AXLOQIY MUHIT

F.F.NURULLAYEV,
Bux DU o'qituvchisi
N.A.IKRAMOVA,
Bux DU talabasi

Oila-kishining hayot yo'li, faoliyati boshlanadigan eng birinchi jamoa sanalib, inson ilk bor insonni shu yerda ko'radi, u haqda tushuncha, tasavvurga ega bo'ladi. Oilada, avvalo, bola uchun eng yaqin kishilar, uning ota- onasidir. Shuning uchun ham bolaning xulq-atvori, fe'li, odat va ko'nikmalari oilada shakllanadi. Chunki oilada oila a'zolari uzluksiz o'zaro bir-biriga ta'sir etib, farzandning, yurish - turishini nazorat etib boradi. Ushbu maqolada oilaning muqaddas vazifasi qobiliyatli farzandlarni o'qitish, ularni jismoniy, intellektual va ma'naviy tomonidan yetuk qilib ota – onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iborat ekanligi xususida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: madaniy qadriyatlar, «Avesto», oila, nikoh, nikohning qonuniyligi, islom dinida oila, Konstitutsiya va oila.

Семья - это первое сообщество, в котором начинаются жизнь и деятельность человека, и именно здесь человек впервые видит человека, получает представление о нем. В семье, прежде всего, самыми близкими людьми к ребенку являются его родители. Вот почему в семье формируется поведение, отношение, привычки и навыки ребенка. Потому что в семье члены семьи постоянно взаимодействуют друг с другом, контролируя поведение ребенка. В этой статье утверждается, что священная обязанность семьи - воспитывать талантливых детей, воспитывать их физически, интеллектуально и духовно, быть верными своим родителям и Родине.

Ключевые слова: культурные ценности, «Avesto», семья, брак, законность брака, семья в исламской религии, Конституция и семья.

The family is the first community in which a person's life and activity begin, and it is here that a person first sees a person, gets an idea about him. In a family, first of all, the closest people to the child are his parents. That is why the family forms the behavior, attitude, habits and skills of the child. Because in the family, family members constantly interact with each other, controlling the behavior of the child. This article argues that the sacred duty of the family is to raise talented children, to educate them physically, intellectually and spiritually, to be faithful to their parents and homeland.

Key words: cultural values, «Avesto», family, marriage, legitimacy of marriage, Islam dinida family, Constitution and family.

Biron bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odatlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Xalqning madaniy qadriyatlari, urf-odatlari, an'analari, ma'naviy merosi ming



yillar mobaynida Sharq mamlakatlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan – avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va ma'naviy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarni saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

O'zbek oilalaridagi o'zaro hurmat, ehtirom, ota-onaga e'zoz, farzandlarga mehr-shafqat va kichiklarga izzat-ikrom bu kishini barkamol inson, mukammal shaxs sifatida shakllantiradigan, axloqiy va ma'naviy jihatdan go'zal hamda yetuk qiladigan, insoniy fazilatlarni rivojlantiradigan qadriyatlar bo'lib hisoblanadi. Bu qadriyatlarning mazmun - mohiyati farzandlar ongida dastlab oilada singdiriladi. Xalqimizda “bola boshidan”, degan naql bejiz aytilmagan.

Chunki oila muhitida bolaning tarbiyasi, o'sishi va voyaga yetishi uchun asos mavjud. Sog'lom muhit, munosabatlarda ilqlik, o'zaro tushunish mavjud bo'lgan oilada nafaqat farovon, baxtli turmush, balki farzand o'stirish va voyaga yetkazish munosib amalga oshadi. Shuning uchun farzandning sog'lom tug'ilishi, sog'lom o'sishi, sog'lom tarbiyalanishi va nihoyat sog'lom fikrli shaxs bo'lib shakllanishi uchun oiladagi kattalarning o'g'itlari ham muhim hisoblanadi.

Oilaning muqaddas vazifasi qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ulami jismoniy, intellektual va ma'naviy tomonidan yetuk qilib ota – onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Ertangi kunimiz egalari bo'lmish yoshlarimizni yuksak ma'naviyat va ilmu ma'rifatga yo'naltirishda ota-onalar tomonidan oila muhitini sog'lomlashtirish orqali amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar muhimdir. Ota-onaning o'zi jismonan, ma'nan, ruhan va intellektual barkamollikka intilib, farzandlariga shaxsiy namuna ko'rsata olsagina, ko'zlangan natijaga erishish mumkin. Zero, “Qush uyasida ko'rganini qiladi”. Yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun oilada ijtimoiy-psixologik, tibbiy, ma'naviy sog'lom muhit zarurdir.

Ma'lumki, islom dinining muqaddas manbalaridan bo'lmish Qur'on va Hadislarda oila yuritish masalasiga keng o'rin berilgan. Masalan, “Hech bir ota o'z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros bera olmaydi”/136-hadis/. Muxtasar qilib aytganda, oila poklikka va soflikka, ikki tomonlama muhabbatga, sadoqat va vafodorlikka asoslanishi kerak. Bu farzandlar tarbiyasi uchun muhim omil hisoblanadi. Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, e'tiqodiga ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda, oila-haqiqiy ma'naviyat o'chog'i va qo'rg'oni, mafkuraviy tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos yuksak tuyg'ular ilk bor oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi. Oila uning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan muqaddas an'analari orqali yoshlarda vatanga muhabbat, imon-e'tiqod, mas'uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmga ishtiyoq, mehnatsevarlik ko'nikmalari shakllanadi.

Hozir xalqning milliy an'analari, urf-odatları, ruhiyati, hayoti va oila turmushi



haqida ta'lim oluvchilarga ilmiy ma'lumot berish dolzarb masala. O'zbek xalqi o'z oilaviy an'analari bilan jahon hamjamiyatiga o'ziga xos yuksak mavqeni qo'lga kiritib, eng qadimgi xalqlardan biri sifatida mana shunday bebaho, boy xazinaga ega. Mazkur ma'naviy xazinadan foydalanish uchun o'zbek xalqining oila an'analarini bilishimiz, boyitib takomillashtirishimiz, saqlashimiz hamda keyingi avlodlarga yetkazishimiz har birimizning muqaddas vazifamiz bo'lmog'i darkor.

Sharq mutafakkirlari orasida «Sharq Aristoteli» nomi bilan ma'lum va mashhur bo'lgan Abu Nasr Forobiy o'zining «Baxtga erishish haqida», «Baxtga olib boruvchi yo'lni ko'rsatish» kabi asarlarida, inson kamolotida tarbiyaning ahamiyatini ochib beradi. Farzandga yaxshi tarbiya berish, uning xulqiga yaxshi fazilatlarni singdirish uchun ustozlar tarbiyalashi kerakligini uqtirib, komil insonni voyaga etkazish ustozning, tajribali shaxslarning vazifasi deb qaraydi. Uning bu fikrlari oila tarbiyasiga ham taalluqlidir.

Sharqda, «Shayx-ur-ra'is unvoniga sazovor bo'lgan qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino o'zining ta'lim-tarbiyaga oid bir qator asarlarida oila tarbiyasi haqidagi fikrlarni bildiradi».

U o'zining «Axloqqa oid risolasi»da axloqiy xislatlar iffat, qanoat, saxiylik, shijoat, sabr, muloyimlik, sir saqlay bilishlik, do'stlik, vafodorlik, kamtarlik kabi axloqiy tushunchalar mohiyatini ochib, ta'rif beradi va bolada bu fazilatlarni tarbiyalash ota-onaning vazifasi deb ta'kidlaydi. Shuningdek, bola shaxsida aldanchilik, qo'rqqulik, yalqovlik, ikkiyuzlamachilik, o'g'rilik, munofiqlik kabi salbiy sifatlar ham hosil bo'lishi mumkin, ota-ona bularni yo'qotishi yaxshilik va ezgulikka yetaklashdek vazifani bajarishi kerak deb ko'rsatadi.

«Inson yaxshi va yomon moyillarning ijodkori bo'ladi. Yaxshilik inson tabiatini go'zallashtirsa, yomonlik mayli uni tubanlashtiradi. Bularning barchasi oilada bolaga ta'sir etib, uning xulqini buzadi» - deydi.

Ibn Sinoning ta'kidlashicha, oiladagi otaning tabiatdan yumshoqko'ngil, shirin so'zli bo'lishi bola tabiatini buzadi. Oilada bosh tarbiyachi otadir deb hisoblaydi. Uning fikricha ota bolalar tarbiyasida qattiq qo'llik va hatto lozim bo'lsa, jazo berishga qodir ta'sir ko'rsatuvchidir.

Mazkur asarning «Ayollarning yaxshi fazilatlari» bo'limida esa onalarning donoligi, bosiqliqi, halolliqi, kamtarligi kabi axloqiy sifatlarini ulug'laydi. Uningcha ayollar hamma yerda erkakning munosib hamroxi bo'lishi bilan birga oila mustahkamligi, hamda bolalarni tarbiyalashda uning eng yaqin yordamchisi hamdir.

«Tib qonunlari» asarida esa, bola tarbiyasida onaning vazifalariga alohida e'tibor beradi. Jumladan: bola kamolotiga emizuvchi ayolning g'azablanish, qayg'urish, qo'rqish kabi ruhiy kechinmalari zarar keltirishini uqtirib, mumkin qadar sipo, bosiq va chidamli bo'lishi lozimligini maslahat beriladi.



Bugungi kunda oila farzand tarbiyasini kamol toptirishda quyidagi ustivor vazifalarga e'tibor qaratish lozim:

– turar joyda va mahallada olib borilayotgan barcha tarbiyaviy, ma'naviy, ma'rifiy, madaniy-ommaviy va sport tadbirlarni barcha tashkilotlar hamkorligida tashkil etish;

– o'quvchi-yoshlar, ota-onalar, jamoatchilik bilan huquqiy tarbiyani amalga oshirish, tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari orasida milliy mafkurani targ'ib qilish, aqidaparastlik va milliy taraqqiyotimizga zararli g'oyalarning kirib kelishiga qarshi murosasiz kurashishni tashkil etish;

– ta'lim muassasalari nizomlari asosida farzandlarimizning maktabda joriy qilingan tartibga amal qilishlarini va huquqiy savodxonligini oshirib, jamiyat qaror va nizomlariga e'tiborli bo'lish, qonun hamma uchun bir xil ekanligini yoshligidan uqtirib borishga erishi

Umuman olganda, oila va uning mohiyati, oilaning har tomonlama ravnaqi va jipsligini ta'minlash shart-sharoitlari, oila tarbiyasi-milliy iftixor, uning jamiyat negizi ekani, oila ichidagi oila kamolotini ta'minlash singari muammolarni tadqiq etish hamda ularni xalqqa sodda va tushunarli tarzda yetkazish shu kunning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (1997yil 29 avgustda qabul qilingan / Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent :O'zbekiston , 1997.
3. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. T. O'qituvch. 1996.
4. Otavaliyeva U. "Bola tarbiyasida bag'cha va oila hamkorligi". T.1994 y.
5. Munavvarov A.K. Pedagogika T.O'qituvchi. 1996 .
6. O.To'rayeva "Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi". T.O'qituvchi 1998y.
7. O.Xasanboyeva. Oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya". T.1998y.
- 8.O.Xasanboyeva. "Oila pedagogika"si T.Aloqachi. 2007y .